

"Dehqonobod kaliy zavodi"ning "Yosh kitobxon xodimi" aniqlandi

// 28 June 2024 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/dehqonobod-kaliy-zavodi-ning-yosh-kitobxon-xodimi-aniqlandi>



Bugun "Dehqonobod kaliy zavodi" Ajda yosh xodimlarning kitobxonlik madaniyatini yanada kuchaytirish hamda kitob mutolaasini korxonada keng targ'ib qilish maqsadida "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovining 1-bosqichi o'tkazildi. Yosh soha vakillari 5 ta shart asosida o'z bilimlarini namoyon qilishdi. Hakam hay'ati a'zolarining yakuniy baholash natijalariga ko'ra:

1-o'rinni Nilufar Norqobilova, KO'Ich 1-sexi taroziboni;

2-o'rinni Asilbek Ismoilov, Avtotransport sexi, Texnik hujjatlarni yuritish bo'yicha texnik;

3-o'rinni Ubaydulla Musulov, Bosh mexanika xizmati yetakchi muhandis-konstruktori qo'lga kiritib, ko'rik-tanlovning 2 - bosqichida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

G'oliblar Jamiyat tomonidan rag'batlantiriladi.



Eslatib o'tamiz, "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovining 2 - bosqichi joriy yil iyul oyining ilk 10 kunligida "O'zkimyosanoat" AJda o'tkazilishi ko'zda tutilgan.



"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ Matbuot xizmati